



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(3)

2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 246 sahifa,
9-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini o'rganish.....	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati.....	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari.....	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiovva Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinovna</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari.....	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ...	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboyevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari.....	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish	69
<i>D. Y. Pulatova, G' R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri.....	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi.....	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi talabarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarining kasbiy sifatlarini shakllantirish	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmira Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

MUNDARIJA	CONTENTS	Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech.....	184
		Turumbetova Aygul Yusupbaevna	
		Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi.....	189
		Ummatkulova Sayyora Shovkatovna	
		Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish.....	191
		Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov	
		Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi.....	195
		Ermatova Robiya Bekjonali qizi	
		The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education.....	199
		Ismailova Shaira Ferdausovna	
		Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners.....	204
		Maqsudova Gulnoz Olimovna	
		Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms.....	208
		Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi	
		Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching.....	212
		Sharipova Muhabbat Erkinovna	
		Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili.....	216
		Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich	
		Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv.....	222
		Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li	
		O'qituvchilarning qadriyatlari va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili.....	227
		Yuldashova Dilafuz Shavkatovna	
		Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida.....	229
		Safarova Madina Azamat qizi	
		Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности.....	233
		Аскарова Гулрух Оринбасаровна	
		Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века.....	239
		Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Фолиб	
		Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана.....	242
		Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек	



RAQAMLI PEDAGOGIKANING ZAMONAVIY TA'LIM RIVOJLANISHIDAGI O'RNI

Tojiyeva Asila Abdimannon qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Pardayeva Ra'no Eshboyevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni, uning ta'lim jarayonini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari hamda o'quvchilarning bilim olish faolligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Raqamli pedagogika bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini interaktiv tashkil etish, masofaviy va aralash ta'lim shakllaridan samarali foydalanish, shuningdek, ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Maqolada raqamli texnologiyalar, elektron ta'lim resurslari, multimedia vositalari, onlayn platformalar va virtual ta'lim muhitining pedagogik jarayondagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli pedagogikaning maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim tizimida qo'llanilishi ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: raqamli pedagogika, zamonaviy ta'lim, raqamli texnologiyalar, elektron ta'lim, interaktiv metodlar, masofaviy ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim sifati.

Abstract: This article highlights the role of digital pedagogy in the modern education system, its pedagogical opportunities in developing the educational process, and its importance in increasing learners' cognitive activity. Today, digital pedagogy is considered an important factor in improving the quality of education, organizing the learning process interactively, effectively using distance and blended learning forms, as well as developing learners' independent thinking and creative approach skills.

The article analyzes the importance of digital technologies, electronic educational resources, multimedia tools, online platforms, and virtual learning environments in the pedagogical process. It also substantiates that the application of digital pedagogy in preschool, general secondary, and higher education contributes to improving educational effectiveness.

Key words: digital pedagogy, modern education, digital technologies, e-learning, interactive methods, distance learning, information and communication technologies, quality of education.

Аннотация: В данной статье освещается роль цифровой педагогики в современной системе образования, её педагогические возможности в развитии образовательного процесса, а также значение в повышении познавательной активности обучающихся. Цифровая педагогика сегодня выступает важным фактором повышения качества образования, интерактивной организации учебного процесса, эффективного использования дистанционных и смешанных форм обучения, а также развития у обучающихся навыков самостоятельного мышления и творческого подхода.

В статье анализируется значение цифровых технологий, электронных образовательных ресурсов, мультимедийных средств, онлайн-платформ и виртуальной образовательной среды в педагогическом процессе. Также обосновывается, что применение цифровой педагогики в дошкольном, общем среднем и высшем образовании способствует повышению эффективности обучения.

Ключевые слова: цифровая педагогика, современное образование, цифровые технологии, электронное обучение, интерактивные методы, дистанционное обучение, информационно-коммуникационные технологии, качество образования.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari jamiyat hayotining barcha sohalarida, ayniqsa, ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy ta'lim oldida turgan asosiy vazifalardan biri - ta'lim oluvchilarga faqat tayyor bilim berish emas, balki ularni mustaqil fikrlaydigan, axborotni izlab topadigan, tahlil qiladigan, ijodiy yondashadigan va amaliy faoliyatda qo'llay oladigan shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Bu jarayonda raqamli pedagogika muhim ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli pedagogika ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari, multimedia vositalari, onlayn platformalar, virtual ta'lim muhiti va interaktiv metodlardan samarali foydalanishga asoslanadi. Ushbu yondashuv dars jarayonini an'anaviy usullardan farqli ravishda yanada qiziqarli, ko'rgazmali, moslashuvchan va samarali tashkil etish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar yordamida o'quv materiallarini tezkor yetkazish, mavzularni vizual ko'rinishda tushuntirish, masofaviy va aralash ta'lim shakllarini yo'lga qo'yish, shuningdek, ta'lim oluvchilarning bilimini baholash jarayonini takomillashtirish mumkin.

Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida raqamli pedagogikaning o'rni beqiyosdir. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalar obrazli fikrlash, ko'rish, eshitish va amaliy harakatlar orqali bilimlarni tezroq o'zlashtiradilar. Shu sababli multimedia vositalari, animatsion materiallar, interaktiv o'yinlar va elektron ta'lim resurslari bolalarning idroki, xotirasi, diqqati, nutqi hamda ijodiy tasavvurini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Biroq raqamli texnologiyalardan foydalanishda bolalarning yosh xususiyatlari, sog'lig'i, psixologik holati va pedagogik maqsadlar albatta hisobga olinishi zarur.

Shuningdek, raqamli pedagogika umumiy o'rta va oliy ta'lim tizimida ham ta'lim sifatini oshirish, mustaqil ta'limni rivojlantirish, o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Raqamli vositalardan samarali foydalanish ta'lim oluvchilarning faolligini oshiradi, ularni izlanishga undaydi hamda zamonaviy kasbiy va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli pedagogika bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur yo'nalish zamonaviy ta'lim jarayonini texnologik, metodik va didaktik jihatdan yangilashga xizmat qiluvchi muhim pedagogik yondashuv sifatida qaraladi. Raqamli pedagogika faqat kompyuter yoki internetdan foydalanish bilan cheklanmaydi, balki ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, baholash shakllari, o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqadi. Shu bois ilmiy manbalarda raqamli pedagogika ta'lim sifatini oshirish, mustaqil ta'limni rivojlantirish, interaktivlikni kuchaytirish va o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish vositasi sifatida talqin qilinadi.

Mishra va Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK - Technological Pedagogical Content Knowledge modeli raqamli pedagogikaning nazariy asoslarini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvga ko'ra, o'qituvchi samarali dars tashkil etishi uchun faqat fan mazmunini bilishi yetarli emas; u pedagogik metodlarni hamda texnologik vositalardan foydalanish yo'llarini ham chuqur egallashi zarur. Demak, raqamli pedagogika o'qituvchidan fan, pedagogika va texnologiya uyg'unligini ta'minlashni talab qiladi. Bu model raqamli vositalarni darsga maqsadli kiritish, ularni mavzu mazmuniga mos tanlash va o'quvchining faol ishtirokini ta'minlashda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

A.W.Batesning raqamli davrda ta'lim berish bo'yicha tadqiqotlarida texnologiyalar ta'lim jarayonini avtomatik ravishda samarali qilib qo'ymasligi, balki ularni pedagogik maqsadga muvofiq tanlash va qo'llash zarurligi ta'kidlanadi. Muallif raqamli ta'limda o'qituvchi o'quv materialini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va o'quvchining mustaqil faoliyatini boshqaruvchi shaxs sifatida namoyon bo'lishini asoslaydi. Bu fikr raqamli pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri - texnologiya ta'lim maqsadiga xizmat qilishi kerakligi bilan bevosita bog'liqdir.

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan ICT Competency Framework for Teachers hujjatida pedagoglarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasi ta'lim siyosati, o'quv dasturi, pedagogika, raqamli ko'nikmalar, ta'lim jarayonini boshqarish va kasbiy rivojlanish kabi yo'nalishlar bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Mazkur yondashuv raqamli pedagogikaning faqat texnik ko'nikma emas, balki o'qituvchining umumiy kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi ekanligini ko'rsatadi. Shu jihatdan raqamli pedagogika o'qituvchini zamonaviy ta'lim muhitida faol ishlashga, elektron resurslar yaratishga, interaktiv metodlardan foydalanishga va ta'lim oluvchilarning raqamli savodxonligini shakllantirishga yo'naltiradi.

Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu raqamli kompetensiya modeli ham raqamli pedagogika bo'yicha muhim ilmiy-metodik manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu modelda pedagoglarning raqamli kompetensiyasi maktabgacha ta'limdan tortib oliy va kattalar ta'limigacha bo'lgan barcha bosqichlarda zarur ekani ko'rsatiladi. DigCompEdu yondashuvi pedagogning raqamli texnologiyalardan kasbiy faoliyatda foydalanishi, raqamli resurslarni tanlashi va yaratishi, o'quvchilarni faollashtirishi, baholashni tashkil etishi hamda ta'lim oluvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishini o'z ichiga oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni va pedagogik imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy metodlarning uyg'unligi ta'minlandi.



Tadqiqotning nazariy asosini raqamli pedagogika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim, masofaviy ta'lim va interaktiv o'qitish metodlariga oid mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Jumladan, Mishra va Koehlnerning TPACK modeli, UNESCOning ICT Competency Framework for Teachers hujjati hamda DigCompEdu raqamli kompetensiyalar modeli metodologik asos sifatida tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- nazariy tahlil metodi - raqamli pedagogika bo'yicha ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy maqolalar va elektron manbalarni o'rganish hamda umumlashtirish uchun qo'llanildi;
- qiyosiy tahlil metodi - an'anaviy va raqamli pedagogika yondashuvlarining o'ziga xos jihatlarini taqqoslash maqsadida foydalanildi;
- tizimli tahlil metodi - raqamli pedagogikaning ta'lim jarayonidagi tarkibiy qismlari va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlashga xizmat qildi;
- kuzatish metodi - ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish holatlarini o'rganish va ularning samaradorligini baholash uchun qo'llanildi;
- umumlashtirish metodi - olingan natijalarni tizimlashtirish va ilmiy xulosalar ishlab chiqishda foydalanildi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish jarayonida raqamli texnologiyalarning ta'lim sifati, ta'lim oluvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantirishdagi ahamiyati aniqlandi. Shuningdek, raqamli pedagogikani samarali joriy etish uchun pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish, texnik infratuzilmani takomillashtirish va sifatli elektron ta'lim resurslarini yaratish zarurligi asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rnini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bugungi ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar o'qitishning qo'shimcha vositasi sifatida emas, balki ta'lim sifatini oshiruvchi muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli pedagogika o'quv jarayonini faollashtirish, ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini individuallashtirish va o'qituvchi faoliyatini metodik jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ta'lim jarayonida bilim asosan o'qituvchi tomonidan og'zaki tushuntirish, darslik va yozma topshiriqlar orqali berilgan bo'lsa, raqamli pedagogika sharoitida ta'lim jarayoni ko'rgazmali, interaktiv va amaliy xarakter kasb etadi. Multimedia materiallari, elektron darsliklar, videodarslar, animatsiyalar, onlayn testlar va virtual ta'lim muhitlari o'quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Ayniqsa, murakkab mavzularni obrazli, harakatli va vizual shaklda tushuntirish ta'lim oluvchilarning idrok jarayonini faollashtiradi.

Raqamli pedagogikaning muhim natijalaridan biri - ta'lim oluvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi va bilim olish faolligining oshishidir. Raqamli texnologiyalar orqali tashkil etilgan mashg'ulotlarda o'quvchi faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida qatnashadi. Interaktiv savollar, elektron topshiriqlar, raqamli o'yinlar va muammoli vaziyatlar o'quvchini mustaqil izlanishga, fikrlashga va qaror qabul qilishga undaydi. Bu esa zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi bo'lgan kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tizimi nuqtayi nazaridan qaralganda, raqamli pedagogika bolalarning yosh xususiyatlariga mos holda qo'llanilganda samarali natija beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'proq ko'rish, eshitish, harakat va o'yin orqali bilim oladilar. Shu sababli animatsion materiallar, interaktiv mashqlar, elektron ertaklar, rangli tasvirlar va tovushli ta'lim resurslari bolalarning diqqatini jamlash, nutqini rivojlantirish, xotirasini mustahkamlash va ijodiy tasavvurini kengaytirishga xizmat qiladi. Bunda raqamli vositalar tarbiyachining o'rnini bosmaydi, balki ta'lim-tarbiya jarayonini yanada boyituvchi yordamchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Umumiy o'rta ta'limda raqamli pedagogika fanlarni o'zlashtirish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, tabiiy fanlarda virtual tajribalar, tarix fanida elektron xaritalar, ona tili va adabiyot darslarida audio-video materiallar, matematika darslarida interaktiv masalalar o'quvchilarning mavzuni yaxshiroq tushinishiga yordam beradi. Bu esa nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, tahlil jarayonida raqamli pedagogikani joriy etishda ayrim muammolar mavjudligi ham aniqlandi. Jumladan, barcha ta'lim muassasalarida texnik vositalarning yetarli emasligi, internet sifati bilan bog'liq muammolar, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi turlicha ekani, sifatli elektron resurslarning yetishmasligi va ba'zi hollarda raqamli vositalardan maqsadsiz foydalanish holatlari kuzatiladi. Ayniqsa, maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalardan ortiqcha foydalanish bolaning sog'lig'i, ko'rish qobiliyati va psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli raqamli pedagogikani joriy etishda pedagogik me'yor, yosh xususiyatlari va ta'limiy maqsadlar asosiy mezon bo'lishi kerak.

O'tkazilgan tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, raqamli pedagogikaning samaradorligi uch asosiy omilga bog'liq:

- *birinchidan*, pedagogning raqamli kompetensiyasi;
- *ikkinchidan*, ta'lim muassasasining texnik imkoniyati;
- *uchinchidan*, raqamli resurslarning metodik sifati.

Ushbu omillar o'zaro uyg'unlashganda raqamli pedagogika ta'lim jarayonida yuqori samaradorlik beradi.

Natijada, raqamli pedagogika zamonaviy ta'lim rivojlanishida quyidagi pedagogik ahamiyatga ega ekani asoslandi: u ta'lim jarayonini innovatsion tashkil etadi, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, masofaviy hamda aralash ta'lim imkoniyatlarini kengaytiradi va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Demak, raqamli pedagogikani ilmiy-metodik asosda joriy etish zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni yuzasidan olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish bugungi kunda zaruriy ehtiyojga aylangan. Chunki zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchi va talabalardan faqat nazariy bilimlarni egallashni emas, balki axborot bilan ishlash, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, ijodiy yondashish va raqamli vositalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini ham talab etadi. Shu jihatdan raqamli pedagogika ta'lim jarayonini yangilovchi, uni interaktiv va samarali tashkil etuvchi muhim pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, raqamli pedagogika ta'lim oluvchining bilim olishdagi faolligini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. An'anaviy ta'limda o'quvchi ko'proq tayyor axborotni qabul qiluvchi sifatida ishtirok etsa, raqamli pedagogika sharoitida u izlanadi, savollarga javob topadi, elektron resurslar bilan ishlaydi, topshiriqlarni mustaqil bajaradi va o'z natijasini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu holat ta'lim oluvchining o'quv jarayonidagi subyekt sifatidagi faolligini kuchaytiradi.

Raqamli pedagogikaning yana bir muhim jihati shundaki, u ta'lim jarayonida ko'rgazmalilik, interaktivlik va individuallik tamoyillarini kuchaytiradi. Multimedia materiallari, animatsiyalar, videodarslar, elektron testlar va virtual mashg'ulotlar o'quv materialini oddiy bayon qilishdan ko'ra ancha ta'sirchan va tushunarli shaklda yetkazish imkonini beradi. Ayniqsa, maktabgacha ta'limda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda raqamli vositalardan foydalanish ularning diqqatini jamlash, idrokini rivojlantirish, nutqiy faolligini oshirish va ijodiy tasavvurini kengaytirishda samarali hisoblanadi.

Shu bilan birga, raqamli pedagogikani amaliyotga tatbiq etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, barcha ta'lim muassasalarida texnik jihozlarning yetarli emasligi, internet sifati bilan bog'liq cheklovlar, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi bir xil darajada shakllanmaganligi va sifatli elektron resurslarning yetishmasligi ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilishi mumkin. Bu esa raqamli pedagogikani samarali joriy etish uchun faqat texnik vositalar emas, balki metodik tayyorgarlik ham zarur ekanligini ko'rsatadi.

Muhokama davomida yana bir muhim masala – raqamli texnologiyalardan maqsadli va me'yoriy foydalanish zarurligi aniqlandi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda raqamli vositalardan ortiqcha foydalanish ularning sog'lig'i, ko'rish qobiliyati, diqqat barqarorligi va psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli raqamli pedagogika tarbiyachi yoki o'qituvchining o'rnini bosuvchi vosita sifatida emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonini boyituvchi yordamchi pedagogik vosita sifatida qo'llanilishi lozim.

Raqamli pedagogikaning samaradorligi ko'p jihatdan pedagogning kasbiy va raqamli kompetensiyasiga bog'liq. Pedagog raqamli vositalardan foydalanishni texnik jihatdan bilishi bilan birga, ularni dars maqsadi, mavzu mazmuni, ta'lim oluvchilarning yoshi va individual xususiyatlariga mos holda tanlay olishi kerak. Demak, raqamli pedagogika o'qituvchidan yangicha metodik fikrlashni, innovatsion yondashuvni va doimiy kasbiy rivojlanishni talab etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, raqamli pedagogika zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim pedagogik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar, elektron ta'lim resurslari, multimedia vositalari, onlayn platformalar va interaktiv metodlarni joriy etish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish hamda ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli pedagogika ta'lim oluvchini passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi. Raqamli vositalar yordamida o'quvchi mustaqil izlanadi, axborot bilan ishlaydi, topshiriqlarni bajaradi, o'z bilimini nazorat qiladi va amaliy faoliyatda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa zamonaviy ta'limning kompetensiyaviy yondashuv talablariga mos keladi.



Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida raqamli pedagogikadan to'g'ri va me'yorida foydalanish bolalarning idroki, diqqati, xotirasi, nutqi, mantiqiy fikrlashi va ijodiy tasavvurini rivojlantirishda samarali natija beradi. Bunda raqamli texnologiyalar tarbiyachining o'rnini bosuvchi vosita emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonini boyituvchi yordamchi pedagogik vosita sifatida qo'llanilishi lozim.

Shu bilan birga, raqamli pedagogikani samarali joriy etish uchun ta'lim muassasalarining texnik ta'minotini yaxshilash, barqaror internet imkoniyatlarini yaratish, pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish va sifatli elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish zarur. Raqamli vositalardan foydalanishda ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik holati, sog'lig'i va pedagogik maqsadlar albatta hisobga olinishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. - Toshkent, 2020-yil 5-oktabr.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2020-yil 23-sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori. - Toshkent, 2019-yil 8-may.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. - Toshkent, 2019-yil 29-aprel.
5. Abdullayeva Sh.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
6. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
7. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M.A. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Nihol, 2013.
8. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. - Toshkent: Sano-standart, 2015.
9. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 2004.
10. Qodirov B.R. Axborot texnologiyalari va ta'lim jarayonini modernizatsiyalash. - Toshkent: Fan, 2018.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.